

ZAMONAVIY FORS BOLALAR ADABIYOTI VAKILI MUHAMMADRIZO

BAYRAMIY

Niyezmatova G.

1-kurs magistranti

Turdiyeva O. Z.

Ilmiy rahbar: f.f.d.

Annotatsiya:

Mazkur maqola Eron bolalar va o'smirlar adabiyoti vakili Muhammadrizi Bayramiy hayoti va ijodi, adabiyot sohasida tutgan o'rni, hamda asarlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Muhammadrizo Bayramiy, Eron, bolalar va o'smirlar adabiyoti, voqelik va xayolot.

Аннотация:

В данной статье раскрывается жизнь и творчество представителя иранской детской и юношеской литературы Мохаммадризи Байрамии, его место в области литературы, а также уникальные особенности его творчества.

Ключевые слова: Мохаммадреза Байрамии, Иран, детская и подростковая литература, реальность и фантастика.

Abstract:

This article reveals the life and work of the representative of Iranian children's and youth literature, Mohammadrizi Bayramii, his place in the field of literature, and the unique features of his works.

Key words: Mohammadreza Bayramii, Iran, children's and teenagers' literature, reality and fantasy.

Muhammadrizo Bayramiy 1965-yilda Eronning Ardabil o'stoni Sablon tog'i etagidagi Tarlan qishlog'ida dunyoga kelgan. Olti yoshida oilasi bilan Tehronga ko'chib kelishadi va Karajga joylashishadi. Muhammadrizo Bayramiy bolaligidan Eronlik mashhur bolalar yozuvchisi Samad Behrangiyning asarlarini sevib mutolaa etgan va o'smirlik chog'ida Samad Behrangiyni va Ali Ashraf Darvishyon ijodini o'rgangan va uning so'zlariga ko'ra, bu izlanishlar uning yozishga bo'lgan ishtiyoqini vz qiziqishini uyg'otgan.

Muhammadrizo Bayramiy o'zi ilk yozgan hikoyasini "Qesse va qessenavisi" radio dasturiga yuborgan. O'sha hikoya radioda o'qiladi va bu voqea Muhammadrizo Bayramiyning yozishni o'rganish va mashq qilishga ko'proq vaqt ajratishiga qo'shimcha turtki bo'ldi. Muhammadrizo Bayramiy "Bolalar va o'smirlar intellektual rivojlanishi markazi"ning hikoya yozish kursiga o'qishga kirdi, biroq moliyaviy muammolar sababli darslarda qatnasha olmadi.

Muhammadrizo Bayramiy Eronning eng sermahsul va mashhur zamonaviy nasriy yozuvchilaridan biridir, hamda, eronning "Xoneye doston" adabiy jamiyati raisi. M. Bayramiyning "پایز صحرا" ("Sahro kuzi"), "آواز گم شده" ("Yo'qolgan ovoz"), "فلوت" ("Fleyta"), "سپیدار بلند مدرسه ما" ("Asr vaqti qarg'alari"), "تفنگ" ("Miltiq"), "برف" ("Qor"), "مکتبیمیز" ("Maktabimiz oq qayini"), "فصل کوچ درناها" ("Turnalarning ko'chish fasli") hikoyalari va boshqa asarlarida eronliklar hayoti, real lavhalar jozibali tasvirlangan. Ayniqsa, adibning "هفت روز آخر" ("So'nggi yetti kun") nomli Eron-Iroq urushi haqidagi memuar asari juda mashhur. Bayramiy Eronda so'nggi 30 yilning eng yaxshi boalar va o'smirlar yozuvchisi hisoblanadi. Uning asarlari ko'plab xalqaro va mamlakat doirasidagi nufuzli sovrinlarga sazovor bo'lgan. "قصه های سابلان" ("Sablon ertaklari") trilogiyasi Bayramiyning Sablon tog'lari yonbag'irlarida yashab o'tgan xotiralaridan olingan.

"توگ منی چاقیدی" ("Tog' meni chaqirdi") kitobi "Sablon ertaklari" trilogiyasining birinchi romanidir. Muhammadrizo Bayramiy timsol va belgilarga to'la qissada Sablon viloyati qishloqlarining urf-odatlarini, turmush tarzi haqida hikoyaning bosh hikoyachisi Jalol tili orqali hikoya qilindi. Otasidan ayrilgan, oilaga mas'ul bo'lgan Jalol bu mas'uliyatni yaxshi uddalay olishini o'ziga ham, boshqalarga ham isbotlashga harakat qiladi. Kitob nemis tiliga taniqli nemis tarjimoni Uta Himmel reyx tomonidan "Shon-sharaf hamisha barhayot" nomi bilan tarjima qilingan. "Tog' meni chaqirdi" kitobi Bern provinsiyasining (Germaniya) "Oltin ayiq" mukofoti, Shveytsarining "Moviy kobra" mukofoti, hamda Shveytsarida eng yaxshi yil kitobi deya e'tirof etilgan.

Yozuvchining "Sahro kuzi" to'plamida 8 ta hikoya joy olgan:

"پایز صحرا" ("Sahro kuzi"), "آواز گم شده" ("Yo'qolgan ovoz"), "فلوت" ("Fleyta"), "کلاغهای عصر" ("Asr qarg'alari"), "تفنگ" ("Miltiq"), "برف" ("Qor"), "سپیدار بلند مدرسه ما" ("Maktabimiz oq teragi"), "فصل کوچ درناها" ("Turnalarning ko'chish fasli"). To'plamdan joy olgan barcha hikoyalarda Eronliklar hayoti, real lavhalar jozibali tasvirlangan. Bayramiy o'z hikoyalarida qishloq mavzusi bilan bir qatorda bolalar va o'smirlar obraziga ham ko'p murojaat etadi. Hikoyalar bir qarashda o'smirlarga bag'ishlab yozilgan, ularning hayoti va muammolari to'g'risida tasavvur uyg'otadi. Bu o'smirlarga mo'ljallab yozilgan va o'smirlar to'g'risidagi asarlar hikoyachi-qahramonning teran yondashuvi asosida qurilgan. Gap o'smirlar tuyg'ulari, tarbiyasi xususida ketganda, hikoyachi-qahramonning hayotiy tajribaga ko'ra chiqargan mantiqiy xulosalari salmoqlidir. Umuman uning qahramon bolalari mehnatkash, samimiy, yo'qchilikni ko'rgan siniq bolalar. Bayramiyning hikoyalari mazmun jihatidan turli-tumandir. M. Bayramiy hikoyalarida ko'pincha oddiylik, tabiiylik, hayotga muhabbat, go'zal xayol

motivlari yetakchilik qiladi. Shu sababli uning ayrim hikoyalari qahramonlari sodda odamlar. “Yo‘qolgan ovoz”, “Qor”, “Miltiq” kabi hikoyalarda biror chigal taqdir yoki inson hayotidagi keskin voqea hamda burilishlar, qahramonona jasorat tasviri emas, oddiy-odatiy voqea hodisalardan, betakror fe‘l-atvorli kishilardan zavqlanish, har bir xarakterning o‘ziga xos olam ekanligini idrok etish – xullas insonni sevish va tushunishga intilish, hayotdan go‘zallik axtarib yashash ishtiyoqi yetakchilik qiladi.

“Fleyta”, “Sahro kuzi”, “Qor” kabi hikoyalarda inson ruhiyati qatlamlariga chuqur kiriladi, ma’naviy-axloqiy masalalar badiiy-estetik rejada tahlil etiladi.

M. Bayramiyning “Fleyta” hikoyasida ko‘chmanchi lo‘lilardan fleyta sotib olishni istagan, ammo bunga imkoni bo‘lmagan bola haqida. Hikoyada talqin qilingan qahramon bola obraziga o‘xshash, uning taqdiriga hamohang tafsilotlar bayoni adabiyotda ko‘p uchraydi. To‘g‘ri, u hali bola, o‘zi orzu qilgan fleytani maromiga yetkazib chalish orzusi, undan taralgan mungli kuyga mahliyo bo‘lib yashashi... Lekin bola bo‘lsa-da, vaziyatga qarab ish tutadi. Otasining yo‘qligi, kambag‘allik, onasining bir amallab pul topib oila tebratishini o‘ylaganida fleyta sotib olish haqidagi orzulari barbod bo‘ladi, yuragining tub-tubiga cho‘kadi. Adib voqealarni bolalarga xos samimiyat bilan bayon qilar ekan, vaziyatga yoshiga xos bo‘lmagan nuqtai nazardan yondashadi. U yanagi yil ko‘chmanchi lo‘lilardan fleytani sotib olish orzusi bilan yashayveradi.

“Yo‘qolgan ovoz” hikoyasi esa yo‘lbars bilan Mino ismli qizning o‘rtasidagi muhabbat afsonasiga asoslangan, hazin, mungli hikoya. O‘rmonda qizlar bilan o‘tin tergani boradigan qizga vahshiy yo‘lbarsning oshiq bo‘lib qolishi, qizning ham bunga javoban yo‘lbarsga mehr berishi aslida bo‘lishi mumkin bo‘lmagan hodisa. Lekin adib bu muhabbat afsonasini shunday ishonarli va chiroyli qilib tasvirlagan.

M. Bayramiyning “Qor” hikoyasi ham bolalar to‘g‘risida va bolalar uchun bo‘lib, bolalik davri, qishloq hayotidan bir lavha. O‘z qishlog‘ida maktab bo‘lmagan bolalar qo‘shni joylashgan katta qishloq maktabiga qatnab o‘qiydilar. Qish kunlarining birida bolalar yo‘lni qisqartirish uchun tekis yo‘ldan emas, tog‘li yo‘ldan ketishadi. Kechqurun qaytayotganlarida esa qor bo‘roniga duch keladilar. Hikoyada beg‘ubor bolalik, bolalarcha tortishuvlar, nizolashishlar, jonli dialoglarda aks etgan bo‘lib, bosh g‘oya har qanday og‘ir vaziyatlarda ham do‘st uchun yordam qo‘lini cho‘zish, do‘stlikka sadoqat ko‘rsatishdan iborat. Hikoyada tabiat, xususan tog‘ manzaralariga ko‘p e‘tibor berilgan. Bolalar bir-birlarini qo‘llab, yordamlashib do‘stlik namoyon qiladilar.

“Maktabimizning oq qayin” hikoyasi esa maktab o‘quvchilari hayotidan hikoya qiladi. Ular o‘qiydigan maktab hovlisida baland oq qayin bo‘lib, bolalarning eng sevimli o‘yin joyi uning soyasi. Biroq uni kesib tashlab o‘rniga sport maydonchasi qurishmoqchi. Bolalar, ayniqsa hikoyachi –qahramon buni istamaydi va ko‘plab sinflar bolalaridan uni kesib tashlashga qarshilik mazmunidagi ariza va imzolar bilan direktorga murojaat qiladi. Bu direktorning

g‘azabini qo‘zg‘aydi. Hikoya daraxtning kesilishi va katta yuk mashinasiga ortib ketilishi bilan tugaydi. Bola hayotida bu birinchi alam tuyg‘usini qo‘zg‘atuvchi hayot tajribasi bo‘ladi.

“Asr payti qarg‘alari” hikoyasi bir gala bolalarning asr paytida qarg‘a bolasini tutib olib, uni qiynashlari, qayerdandir qarg‘alar to‘dasi kelib bolalar boshi ustida uchib-uchib, qiynalgan qarg‘a bolasini o‘zlari bilan parvoz sari olib ketishganlari to‘g‘risida.

Bayramiyning biror hikoyasi milliylikdan xoli emas. U Eronliklarga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘z asarlariga singdirib yuborgan. Milliy an‘analar bilan uzviy bog‘liqlik, sharqona hikmat ma’noli iboralar yozuvchi asarlariga alohida ruh bag‘ishlaydi. “Sahro kuzi”, “Maktabimizning oq qayini”, “Asr payti qarg‘alari”, “Fleyta” hikoyalarida xuddi shunday muhitni, samimiy insonlar, ularning taqdiri, o‘zaro munosabatlari orqali ifodalangan milliylikka daxldor masalalar, ma’naviy-axloqiy muammolar talqinini kuzatish mumkin.

Qishloq ahliga bo‘lgan muhabbat M. Bayramiyning barcha hikoyalarini bog‘lab turuvchi bir rishtaki, u qishloq ahlining har bir so‘zi-yu qilgan ishini zavq bilan tasvirlaydi. Eronni, o‘z xalqining kundalik turmushi va madaniyatini juda yaxshi bilishi Bayramiyga mahalliy hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini, Eronliklarning milliy xarakterini ochib beruvchi “Fleyta”, “Sahro kuzi”, “Qor”, “Miltiq” va boshqa shu kabi hikoyalar yaratishida dastur bo‘lib xizmat qildi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: yozuvchining qishloq, qishloq bolalari obraziga ko‘p murojaat qilishi, ularni shu qadar aniq va yorqin tasvirlashi boisi nima? Nima sababdan aynan qishloq hayoti, uning soddadil, oqko‘ngil odamlari yozuvchi e’tiborini tortgan? Yozuvchi yoki shoir obraz yaratishda, avvalo, o‘zini asosiy ob’ekt qilib oladi. Mutafakkir adib Asqad Muxtor aytganidek: “Asar yozuvchidan unib chiqadi; farzandiday unda tug‘iladi, ulg‘ayadi, kamol topadi; u farzandini avaylaydi, himoya qiladi...Yozuvchi o‘z shaxsi va o‘zgalar shaxsi bilan birikib ketgan – asar uning sub’ekti”.

Bizningcha, M.Bayramiy ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti – olis Ardabil, Sablon tog‘i etagidagi o‘z qishlog‘ining tabiati, qishloq hayoti va qishloq odamlarini qalamga olishi tabiiy. Undan tashqari u o‘smirlar davrasida ko‘p bo‘lgan, ularning butun hayotini sinchkovlik bilan kuzatgan yoki o‘z bolalik xotiralarini yozgan deb hisoblaymiz. Balki ayrim hikoyalar (“Asr qarg‘alari”, “Sahro kuzi”, “Fleyta”) uning avtobiografik asarlari hisoblanar. Taqdir va fe’l-atvorning o‘xshashligiga qaramay, bu yozuvchi yashayotgan jamiyatda odatiy hol bo‘lishi ham mukin.

Bizningcha, yozuvchi uchun insonni tabiatga yaqinroq bo‘lishi orqali uning asl qiyofasi aniq namoyon bo‘lishini, o‘y-fikrlari samimiylashishini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

Ma’lumki, qishloq ahli tabiatan bir oz sodda, to‘pori, ammo samimiyligi bilan ajralib turadi. Qishloqda deyarli hamma bir-birini taniydi, odamlar o‘rtasida mehr-muruvvat, andisha, or-nomus kabi insoniy fazilatlar ham kuchliroq bo‘ladi. Milliy xususiyatlar, urf-odat va an‘analar, mahalliy muhit ham qishloqda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Balki aynan shu holat adibning qishloqqa, qishloq odamlari hayotiga tez-tez murojaat etishiga sabab bo‘lgandir. Bayramiy

portret yaratishning mohir ustasi. Obraz yaratar ekan, adib hech bir kichik detalni, qahramonning odatlarini, mimikasini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Bayramiy hayoti Eronning tog'li hududlari bilan uzviy bog'liq. Aynan shu yerda, tog' bag'irlarida adib o'z asarlariga munosib mavzu va syujetlarni qidirib topadi.

M. Bayramiyning syujet yaratishdagi mahorati haqida xulosa qiladigan bo'lsak, u asar syujetiga o'zi yaxshi biladigan, hayotda ko'rgan, o'rgangan voqealarni asos qilib oladi. Qahramon tanlashda ham aynan shu yo'ldan boradi. Hikoyalarida voqealar tafsilotlari ularga nisbatan adibning tahliliy munosabati bilan almashadi. Yozuvchining ayrim hikoyalarida syujet voqealari keskin rivojlanadi, u kitobxon qiziqishini oshiradi, unda syujet unsurlari aniq tasvirlanadi, ayniqsa yechim salmoqli ahamiyatga ega bo'ladi.

Avvalo M. Bayramiy 80-yillar nasrida, ayniqsa hikoya janrida samarali ijod qilib, an'anaviy usullarni boyitib, o'ziga xos yo'llar izlagan adiblardan ekanini e'tirof etish kerak. Uning hikoyalari sodda, ravon uslubda bitilganligi, tilining sofliqi, voqelikni teran, samimiy ifodalanishi bilan ajralib turadi. M. Bayramiy ko'pincha voqeani birinchi shaxs – hikoyachi-qahramon nutqi orqali ifodalaydi. Uning asarlaridagi hikoyachi ham, boshqa obrazlar qatori mustaqil qahramon. Asarda u ko'pincha muhim o'rin tutadi. Bu hol uning o'ziga xos so'zlash ohangi, mulohazalari, dunyoqarashi orqali namoyon bo'ladi. M. Bayramiy deyarli barcha hikoyalarida voqea bayonini ana shunday obraz – hikoyachi-qahramonga yuklaydi. Ular quruq roviygina emas, balki qahramonlar qiyofalarini tasvirlash bilan birga ularning hatti-harakatlariga munosabat ham bildirib boradi. Hikoyachi -qahramonlarning bayon usuli esa hikoyani yanada maroqli qiladi.

Muhammadrizo Bayramiyning "Sahro kuzi" to'plamidan joy olgan hikoyalar asosida yozuvchi ijodiga xos muhim jihatlar bular: 1) asosan qishloq va bolalarlar obraziga murojaat qilish; 2) bola tarbiyasi masalasi; 3) tabiatga muhabbat; 4) milliy urf-odatlar va Eron xalqiga hurmat-ehtirom; 5) aksariyat hikoyalar qat'iy xulosa bilan yakunlanishi kabi jihatlar.

Adabiyotlar:

1. "پاییز صحرا" محمد رضا بایرامی
2. Asqad Muxtor. Uyqu qochganda... (Tundaliklar)\\ Tafakkur-1996.-1-son.
3. А.Адамович. "Война и деревня в современной литературе". Минск 1982.
4. Turdiyeva O. (2016). Modern Iranian Literature: The Historical and Present Development of the Short Story Genre. Journal of Literature and Art Studies 6(7), 775-784.